

20-Sentyabr, 2025-yil

**KICHIK MAK TAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR DIQQATINI  
BARQARORLASHTIRISHGA QARATILGAN SAMARALI DIDAKTIK  
O'YINLAR MOHIYATI**

**Samigova Komila Abduraufovna**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kichik mazkut yoshidagi o'quvchilarda diqqatning shakllanishi va barqarorlashuviga oid nazariy qarashlar hamda ularni mustahkamlashga qaratilgan samarali didaktik o'yinlar tahlil qilingan. Diqqatning psixologik mohiyati, uning yosh davriga xos xususiyatlari va o'yin faoliyati bilan bog'liq holda rivojlanish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarining qiziqishlari va emotsiyal holati diqqatni boshqarish va mustahkamlashda muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi. Amaliy mashg'ulotlar sifatida turli trening va o'yinlar namunalariga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** diqqat, barqaror diqqat, kichik maktab yoshi, didaktik o'yinlar, trening, psixologik rivojlanish, qiziqish, emotsiyal holat.

---

Kichik maktab yoshi – bolaning shaxsiy rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, bu davrda o'quv faoliyati yetakchi faoliyat sifatida shakllanadi. Shu bilan birga, ushbu yoshdagi o'quvchilar o'yin faoliyatidan ham to'liq chiqib ketmagan bo'ladilar. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni barqarorlashtirish jarayonini didaktik o'yinlar bilan uyg'unlashtirish samarali natija beradi.

Diqqat insonning psixik faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi. U o'quv faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishi, bilimlarni puxta o'zlashtirish hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishni ta'minlovchi asosiy psixik jarayonlardan biridir. K.D. Ushinskiy diqqatni “inson ruhiy hayotining eshigi” deb ta'riflagan. Shuningdek, fransuz olimi Kyuveni diqqatni “geniallikning asosi” deb e'tirof etgan. Bu esa diqqatning inson intellektual faoliyatidagi ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Diqqatning mohiyati va kichik maktab yoshidagi o'ziga xosliklari.

Psixologik adabiyotlarda diqqat – bu ongning ma'lum bir ob'ektga to'planishi va faol yo'naltirilishi deb ta'riflanadi. Diqqatning ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi turlari mavjud bo'lib, kichik maktab yoshida ularning o'zaro aloqadorligi yaqqol namoyon bo'ladi.

M.G.Davletshinning fikricha, kichik maktab yoshidagi bolalar diqqatini aqliy masalalarga qaratish mumkin, biroq bu jarayon katta irodaviy kuch va yuqori motivatsiyani talab qiladi. N.N. Langen esa o'z tadqiqotlarida diqqatning tebranish xususiyatiga e'tibor qaratib, odam charchagan vaqtida diqqat tebranishi tezlashishini qayd etadi.

Diqqatning barqarorligi ko'p jihatdan bolaning emotsiyal holati, qiziqishlari va umumiylayn kayfiyatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish, o'quvchilarining diqqatini faol va barqaror ushlab turishda muhim vosita hisoblanadi.

Didaktik o'yinlarning mohiyati va ahamiyatini

20-Sentyabr, 2025-yil

Didaktik o‘yinlar – bu o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, psixik jarayonlarini faollashtirish hamda ularning ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘quv faoliyati shaklidir. Ularning asosiy vazifasi:

- o‘quvchilarda diqqatning barqarorligini ta’minlash;
- idrok, xotira va tafakkurni rivojlantirish;
- emotsiional muhitni ijobiylashtirish;
- jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, diqqatni ongli ravishda bir ob’ektga yo‘naltirishni osonlashtiradi.

Diqqatni rivojlantiruvchi samarali didaktik o‘yinlar

1. “Eng diqqatli” mashg‘uloti. Bolalar aylana bo‘lib o‘tiradi va o‘qituvchi buyruqlar beradi: “Suv” – qo‘llar yon tomonga, “Er” – qo‘llar pastga, “Olov” – ko‘zlarni qo‘l bilan yopish, “Havo” – qo‘llarni yuqoriga ko‘tarish. Bu mashg‘ulot diqqatni tezkor boshqarishga yordam beradi.

2. “Qo‘ng‘iroq kimda?” Aylana markazida ko‘zlari bog‘langan bola turadi. Qo‘ng‘iroqni aylana bo‘ylab bolalar chalib uzatadi. Markazdagi bola oxirgi jiringlagan joyni ko‘rsatishi kerak. Bu mashq eshituv diqqatini kuchaytiradi.

3. “So‘zlarni eslab qol” O‘qituvchi 6–8 ta so‘z aytadi, bolalar ularni eslab qolib, ketma-ketlikda takrorlaydilar. Bu o‘yin diqqat va xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, “Farqli rasmlarni top”, “Chalg‘ituvchi so‘zlar” va “O‘xshash belgilarni aniqlash” kabi mashg‘ulotlar ham o‘quvchilarda diqqatni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerak-ki, kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar diqqatini barqarorlashtirish ularning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim omildir. Diqqatning shakllanishi va rivojlanishi qiziqarli mashg‘ulotlar, o‘yin faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, o‘qituvchilar didaktik o‘yinlardan keng foydalanishlari lozim. Bu nafaqat o‘quvchilarning diqqatini rivojlantiradi, balki ularning psixologik barqarorligi va o‘quv motivatsiyasini ham kuchaytiradi.

20-Sentyabr, 2025-yil

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Raxmonov A., Jumanazarov Yo., Akbarov S. Yosh davrlar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2009.
2. G‘oziev E.G‘. Psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2003.
3. Ivanov P., Zufarova M. Umumiyl psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.
4. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiyl psixologiya. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2017.
5. Davletshin M.G. Psixologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2010.
6. Ushinskiy K.D. Chelovek kak predmet vospitaniya. – Moskva, 1988.
7. Lange N.N. Vnimanie i ego rol v psicheskoy jizni. – Sankt-Peterburg, 1893.
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
9. [www.apa.org](http://www.apa.org)
10. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)